

SUN'IY INTELLEKT VA ADVOKATLIK KASBINING KELAJAGI

Ibodullayeva Gulnoza Sanjar qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

2- bosqich talabasi

email: gulnozaibodullayeva25@gmail.com

+998-77-736-53-07

Annotatsiya: Bugungi kunda sun'iy intellekt dunyoning deyarli barcha mamlakatlariga kirib keldi va aynan u hamma sohalarga ta'sir o'tkazmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi davrda sun'iy intellekt ma'lumot o'rganish, raqamlashtirish, insonlarga ko'mak berish va shunga o'xshash ko'plab vazifalarni bajarib kelmoqda. Shuningdek, advokatlik faoliyatida ham u bir qancha muhim rollarni o'ynamoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va advokatlik faoliyatining kelajagi keng yoritilgan bo'lib, uning mazmuni, sun'iy intellekt va advokatlik kasbining o'zaro bog'liqligi, jamiyat hayotida qanday rol o'ynashi va shu kabi bir qator masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur mavzu doirasida sun'iy intellektning asosiy maqsadi, advokatlarning huquqlari, bu ikkisi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, shuningdek ularning o'ziga xos jihatlari ham alohida ko'rib chiqildi. Ushbu masalalar doirasida sun'iy intellektning ahamiyati, undan qanday hollarda foydalanish maqsadga muvofiqligi va advokatura faoliyatida uning o'rni, qanchalar zarurligi ham aytib o'tildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt qanchalar ommalashganligi, yuridik sohada qanchalar foydasi tegayotganligi ham o'rganildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, AI, prognozlash, modellashtirish, strategiya, advokatlik faoliyati, raqamlashtirish, Legal tech;

Introduction:

Sun'iy intellekt dunyoning deyarli barcha mamlakatlariga kirib keldi, shuningdek u bizning mamlakatimiz - O'zbekiston Respublikasida ham ommalashdi. Bugungi kunda insonlar undan juda ko'plab maqsadlarda foydalanmoqda va u insonlarning anchagina yumushlarini osonlashtirmoqda desak, xato bo'lmaydi. Undan ko'plab soha vakillari foydalanmoqda. Sun'iy intellekt advokatlik sohasini ham chetlab o'tmadi. Ko'plab odamlar sun'iy intellektni siyosatda, davlat va jamiyat boshqaruvida, masalan, adliya sohasi, prokurorlik faoliyati, advokatlik va yana boshqa shu kabi sohalarda qo'llashni ijobiy baholayotgan bo'lsa, ba'zilar buni rad etmoqda. Ba'zilar sun'iy intellektni inson ongini

zaharlovchi, hayotni barbod qiluvchi deb baholashsa, ko'plab insonlar uni foydali deb qabul qilishmoqda. Ushbu maqolada aynan shu masalani keng va har taraflama muhokama qilishga harakat qilamiz.

Methods:

Maqolani tayyorlash jarayonida O'zbekiston Respublikasining bir qancha qonunlari, xalqaro ilmiy manbaalar, Legel tech sohasiga oid bir qancha qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanildi. Maqsad - sun'iy intellekt nima ekanligini yanada chuqurroq o'rganish, advokat o'zi kim ekanligi, uning qanday huquqlari borligi va sun'iy intellekt uning huquqlariga ta'sir qiladimi, yo'qmi aynan shularni tahlil qilish edi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy maqolalar, hujjatlar va bir qancha ma'lumotlar o'rganildi. Bu bosqichda quyidagi manbaalarga asoslanildi: "O'zbekiston Respublikasi " Advokatura to'g'risidagi qonun" O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori " Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarining ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonun, LexisNexis hamda WestLaw bazalaridan olingan ilmiy maqolalar. Tadqiqotda analitik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi.

Results:

To'plangan ma'lumotlarga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi.:

21-asr - "Texnologiyalar asri"da zamonaviy texnologiyalar, qurilmalar, tizimlar va sun'iy intellekt kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bejizga 21-asrni "Texnologiyalar asri" demadim, chunki barchamizga ma'lum bugun inson texnikasiz yashay olmayapti. Deyarli barcha narsa texnologiyaga bog'liq bo'lib qoldi. Ayniqsa, bugungi kunga kelib Sun'iy intellekt nihoyatda rivojlandi. Demak, birinchidan, "Sun'iy intellekt o'zi nima?" degan savolga javob topamiz. Sun'iy intellekt bu kompyuter tizimlari yoki dasturlarining inson aqliy faoliyatini taqlid qilish, ya'ni fikrlash, o'rganish, nuqtni va tasvirni tanish, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish kabi imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasidir. Oddiy qilib aytganda, sun'iy intellekt - bu inson o'rniga fikrlaydigan, o'rganadigan va qaror qabul qila oladigan aqlli texnologiyadir. AI - bu inson tafakkurini, sezgirligini va o'rganish qobiliyatini texnik shaklda aks ettiruvchi, o'z-o'zini takomillashtiruvchi aqlli tizimdir. Uning asosiy maqsadi- insonning aqliy faoliyatini mashina yordamida modellashtirish va avtomatlashtirishdir. AI- faqat dastur emas, balki o'z-o'zini o'rgatadigan, rivojlanadigan, atrof-muhitga moslashadigan intellektual tizimdir.

Ikkinchidan, sun'iy intellektning bir qancha sohalaridagi ahamiyati va rolini yoritib o'tamiz. Sun'iy intellekt juda ko'plab sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Masalan, tibbiyotda kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonini yengillashtiradi. Tibbiyotga oid

foydali maslahatlar beradi va berib kelmoqda. Shuningdek, AI huquq sohasini ham chetlab o'tmadi. Demak, sun'iy intellekt huquq sohasida hujjatlar tahlili, jinoyatlarni prognozlash, sud qarorlarini moddellashtirishda qo'llaniladi. U huquqiy hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, shartnomalarni tuzishda xatoliklarni aniqlash, sud qarorlarini tahlil qilib, o'xshash ishlarni topish; huquqiy maslahat berish, masalan Legel chatbotlar. Shuning uchun ham sun'iy intellekt hozirda "huquqiy yordamchi" sifatida qaralmoqda. Ta'lim tizimida individual o'qitish tizimlari yaratiladi. Sun'iy intellekt orqali o'quvchilar va talabalar o'z sohasiga oid bilimlarini yanada mustahkamlaydi, qo'shimcha ma'lumotlar o'rganadi, o'zlarini qiziqtirgan deyarli barcha savollarga javob topa oladi. Sun'iy intellekt iqtisodiyotda - avtomatlashtirilgan boshqaruv va tahlil tizimlarini shakllantiradi.

Sun'iy intellekt deganda biz faqat kompyuter yoki robotni emas, balki insondek tushunadigan, tahlil qila oladigan, o'ylaydigan tizimni tushunishimiz kerak. Ammo, sun'iy intellekt ham ikki qirrali. U insonning o'rnini to'liq egallamasligi, biroq inson tafakkuriga yordam beruvchi vosita sifatida ishlatilishi zarur. Chunki texnologiyalar, shuningdek sun'iy intellekt aqlidir, ammo inson tafakkuri, uning his-tuyg'ularini takrorlay olmaydi. Shuning uchun ham sun'iy intellektidan me'yorida va to'g'ri foydalana olishni bilish zarur. Demak, sun'iy intellekt - bu inson aqlining texnologik shakldagi davomi. U bizni kelajak sari yetaklaydi, yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Lekin hech qachon inson o'rnini bosa olmaydi, u faqatgina insonga yordamchi vazifasini bajara oladi. Shuningdek, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Strategiya sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining joriy holati va mamlakatlarning ilg'or tajribalarini hisobga olgan holda mamlakatimizda sun'iy intellektni keng qo'llash, jadal rivojlantirish maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Ushbu strategiyada sun'iy intellektga shunday ta'rif berilgan: Sun'iy intellekt- insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi, shu jumladan mustaqil ravishda o'ylash va fikrlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui. Demak, ushbu qarorning qabul qilinishidan maqsad sun'iy intellekt faoliyatini tartibga solishdir. Ya'ni undan o'rinli va kerakli foydalana bilishni yo'lga qo'yish lozim.

Endi esa advokatlik sohasiga to'xtalsak. Demak, advokat o'zi kim va u nima vazifalarni bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-bobi aynan advokatura organlari

va xodimlariga bag'ishlangan. Asosiy qonunimizning 141-moddasiga ko'ra: Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini-o'zi boshqarish prinsplariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra esa - Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin va shuningdek ushbu qonunning 6-moddasiga ko'ra Advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish vaqtida 1. tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatiga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya etish; 2. tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabgi tergovni o'tkazish va ishni sudda ko'rib chiqish chog'ida yoki ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda va boshqa vakolatli organlarda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ish materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek, albatta, baholanishi lozim bo'lgan dalillarni to'plash va taqdim etish; 3. jismoniy hamda yuridik shaxslarga huquqiy yordam berish, sudda ularning vakili sifatida qatnashish kabi bir qancha huquqlarga ega. O'zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyatining kafolatlar va advokatning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunning 5- va 6-moddalariga ko'ra advokatning mustaqilligi va daxlsizligi to'liq ta'minlanadi. Advokat faoliyat olib borayotgan ishlarga aralashganlik, yoxud advokatning daxlsizligini buzganlik va uning uy-joyiga, xizmat xonasiga kirish, foydalanishdagi transporti hamda aloqa vositalariga uning ruxsatisiz tegish qonunga zid hisoblanadi va javobgarlikka tortilishga asos bo'ladi.

Advokatlik kasbi - bu qonunni bilishdan tashqari odamlarni tinglash, ularning qo'rquvi va umidlariga sherik bo'lishni talab etadi. Sud zalida yoki mijoz bilan yuzma-yuz turgan advokat uchun hujjatlarning to'g'ri va tez tayyorlanishi, amaliyotni tahlil qilish muhim bo'lsa-da, mijozning his-tuyg'ularini anglash, ishonch berish va axloqiy jihatdan to'g'ri yo'lni tanlash - bularning barchasi texnika yordamida hal bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan menimcha, sun'iy intellekt advokatning "ruhiy" ishini emas, balki uning "texnik" ishlarini yengillashtiradi. Masalan, hujjatlarni skanerlash, shartnomalardagi standart xatoliklarni topish, oldingi sud amaliyotlarini tez qidirish, garchi kichik ko'rinadigan ishlar bo'lsa ham, advokatning asosiy vasifasi - muhokama qilish, strategiya tuzish va mijoz bilan muloqotdir. AI bu ishlarni juda tez va samarali bajarishi mumkin. Natijada advokat strategiyaga, ta'limga va insoniy jihatlarga vaqt ajrata oladi. Shu bilan birga, advokatlar faoliyati va advokatura institutining o'zi qonun bilan himoyalangan. Bu kasbning mustaqilligi, advokat va mijoz o'rtasidagi sirning saqlanishi, kabi kafolatlar mavjud. Bu kafolatlar advokatning kasbiy erkinligini, ta'minlab uning axloqiy mas'uliyatini yanada kuchaytiradi. Va shuningdek, har bir

shaxs o'z buzilgan huquqlarini sudda himoya qilish, o'zini oqlash kabi huquqlarga ega va advokatlar aynan shu vazifani bajaradi. Bunday vazifani sun'iy intellektga to'liq ishonish o'rinli bo'lmaydi, sababi sud jarayonida sudya bilan muloqot, mijozning fikri uning ichki kechinmalarini o'rganish, tushunish va buni boshqalarga ham tushuntira olish uchun inson omili nihoyatda zarur. Kelajakda eng muvaffaqiyatli advokatlar- sun'iy intellektni dushman emas, balki yordamchi sifatida baholagan va undan unumli foydalana olgan, mijoz bilan yuzma-yuz muloqotni, insoniylikni yo'qotmagan mutaxassislar bo'ladi. Ya'ni sun'iy intellekt odam emas. U xato qilishi, yolg'on ma'lumotlar berishi mumkin. Shuning uchun ham har qanday avtomatlashtirilgan xulosani advokat ekspertizadan o'tkazishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarur. Shu tariqa kasbning obro'si va samarasi yanada oshadi.

Shuningdek, bir narsani ham unutmasligimiz kerakki, sun'iy intellektni biz a'lo darajada bilmaymiz, ya'ni u nimalar qila olishi mumkin, u bizning ma'lumotlarimizni qanchalar darajada saqlay oladi, unga ishonsa bo'ladimi o'zi? O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuning 15-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollarda: Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy asoslarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ma'naviyatini, sog'lig'ini, huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat mudofasini va davlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ta'qiqlanishi yoki cheklanishi mumkin. Bu norma nima uchun kerak. Sun'iy intellekt butun jahon miqyosidagi tizim hisoblanadi. Biz unga o'z ma'lumotlarimizni kiritamiz, masalan oddiy misol Chatgpt ga biz qayerda yashashimiz, yoshimiz, qandaydir kasalga chalingan bo'lsak sog'lik holatimiz va yana juda ko'plab ma'lumotlarni ishonib ayta olamiz. Ammo, ular sir saqlanadimi, yo'qmi bunga 100% ishonch hosil qilganimizcha yo'q. Shu sababdan, AI dan foydalanishda me'yor va ehtiyotkorlikni unutmasligimiz zarur.

Discussion:

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotining eng katta yutug'iga aylandi va ko'plab odamlar undan foydalanmoqda. U hayotni yengillashtirdi, tezlik va aniqlikni ta'minladi. Ammo, qonun, siyosat, inson huquqlari, jamiyat hayoti haqida gap ketar ekan, bunga hech qanday texnologiya va dasturlar inson tafakkuri, tajribasi va vijdonining o'rnini bosa olmaydi. Advokat bu - nafaqat qonunni biladigan, balki uni to'g'ri talqin qilib, adolatni his ettiradigan insondir. Shuning uchun ham men ishonamanki, kelajakda sun'iy intellekt advokat emas, balki advokatga yordam beradigan yordamchi sifatida rivojlanadi. Sun'iy intellekt nafaqat advokatga balki yana boshqa soha vakillari, ayniqsa o'quvchi yoshlarga agar undan to'g'ri foydalana olishsa, juda ko'plab imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Har qanday algoritmda yurak yo'q, lekin advokat yuragida inson kechinmalari bor. U jinoyat ishi ortida faqat raqam emas, balki hayot, inson taqdiri, oila va ko'z yoshlari

borligini biladi, his qiladi. Sun'iy intellekt esa buni sezolmaydi. U faqat hisoblaydi. Shuning uchun ham texnologiya adolatni o'lchov bilan emas, insoniylik mezoni bilan tushunuvchi advokatning yordamchisiga aylanishi kerak. Yurist- bu nafaqat kasb, bu ishonch va mas'uliyatdir. Shunday ekan kelajak yuristlari, advokatlari texnologiyalardan, sun'iy intellektidan qochmasligi kerak. Undan to'g'ri va halol foydalana olishi, inson sun'iy intellektga emas, sun'iy intellekt insonga bo'ysunishini nazorat qila olishi kerak. Chunki kelajakda eng kuchli advokatlar- sun'iy intellekt imkoniyatini insoniy aql, tajriba va axloq bilan birlashtira olishi lozim. Advokatlik kasbi doimo qadrlanadi, chunki adolatni mashina emas, inson qalbi his qiladi. Inson har doim har qanday sohada doimo kerak bo'lgan va albatta shunday bo'lib qoladi. Qonun yoziladi, tizimlar yaratiladi, lekin adolatni amalga oshiradigan baribir insonning o'zi bo'ladi. Kelajakda advokat boshqaruvchi, sun'iy intellekt esa yordamchi vazifasida faoliyat yuritishsa, bu soha yanada rivojlanib, o'sib boraveradi.

Conclusion: Sun'iy intellekt advokatlik faoliyatida muhim o'rin tutmoqda, ammo u inson tafakkurini to'liq o'zlashtira olmaydi. Kelajakda advokatlar texnologiyalar bilan ishlashni o'rganishlari zarur. Chunki inson va texnologiya birgalikda juda ko'plab yutuqlarga erishadi va hayotni yanada yaxshilashi mumkin. Bu, albatta, huquq sohasining samaradorligini oshirib, adolatni ta'minlashda yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “ Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida”gi qonun
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
3. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonun
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori